

Farg'ona viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025- yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Farg'ona viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 49 733,5 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 48 806,6 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 583,5 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 343,3 mlrd so'mni tashkil qildi.

Farg'ona viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Oltiariq (4 669,7 mlrd so'm), Farg'ona (3 758,4 mlrd so'm), Rishton (3 748,9 mlrd so'm), Qo'shtepa (3 736,2 mlrd so'm), Bag'dod (3 477,7 mlrd so'm) va Quva (3 308,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qo'qon sh (407,7 mlrd so'm), Marg'ilon sh (626,2 mlrd so'm) va So'x tumanini (700,2 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Farg'ona viloyati	49 733,5	105,6
Farg'ona sh	1 184,6	101,5
Qo'qon sh	407,7	101,1
Quvasoy sh	2 162,9	104,2
Marg'ilon sh	626,2	101,6
tumanlar:		
Oltiariq	4 669,7	115,5
Qo'shtepa	3 736,2	104,2
Bag'dod	3 477,7	105,2
Buvayda	3 123,6	107,1
Beshariq	3 250,0	102,0
Quva	3 308,7	102,7
Uchko'prik	2 819,2	105,9
Rishton	3 748,9	103,7
So'x	700,2	100,9
Toshloq	2 770,2	105,9
O'zbekiston	3 151,0	105,7
Farg'ona t	3 758,4	107,0
Dang'ara	2 785,1	106,3
Furqat	2 088,9	102,5
Yozyovon	1 964,3	103,7

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Oltiariq (115,5 %), Buvayda (107,1 %), Farg'ona (107, %), Dang'ara (106,3 %) va Toshloq (105,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan So'x t (100,9 %), Qo'qon sh (101,1 %), Farg'ona sh (101,5%) va Marg'ilon (101,6 %) shaharlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025-yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 47 840,8 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 28 198,4 mlrd so'mni (109,0 %), chorvachilik mahsulotlari 19 642,5 mlrd so'mni (100,0 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Oltiariq (4 579,7 mlrd so'm), Rishton (3 677,4 mlrd so'm), Qo'shtepa (3 614,2 mlrd so'm) va Farg'ona (3 486,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qo'qon sh (382,1 mlrd so'm), Marg'ilon sh (620,6 mlrd so'm) va So'x tumanini (676,5 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Oltiariq (115,5 %), Farg'ona (107,3 %), Buvayda (107,0 %) va Dang'ara (106,1 %) tumanlarida qayd etildi. Qo'qon sh (101,0 %), So'x t (101,1 %), Farg'ona sh (101,5 %) da esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 55,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 41,1 % i fermer xo'jaliklariga, 3,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Farg'ona (1 627,1 mlrd so'm), Buvayda (1 010,5 mlrd so'm), Bag'dod (1 434,4 mlrd so'm), Oltiariq (1 381,2 mlrd so'm) va Dang'ara (1 370,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qo'qon sh (276,5 mlrd so'm), So'x (399,3 mlrd so'm) va Marg'ilon sh (424,5 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Oltiariq (102,7 %), Beshariq (102,5 %), Dang'ara (101,6 %), Buvayda (101,4 %) tumanlarida qayd etildi. Farg'ona sh (92,8 %), Toshloq (98,6 %), Qo'qon sh (98,8 %) va Qo'shtepa (99,3 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 196,1 ming tonna go'sht, 1 207,5 ming tonna sut, 728,2 mln dona tuxum, 1 526 tonna qirqib olingan jun va 16 449,7 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,5 % ni, sog'ib olingan sut – 101,4 % ni, olingan tuxum – 110,5 % ni, qirqib olingan jun – 105,8 % ni hamda ovlangan baliqlar – 114,8 % ni tashkil qildi.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 5,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 81,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 13,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 9,0 % i fermer xo'jaliklari, 89,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning 31,1 % i fermer xo'jaliklariga, 52,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 16,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 11,3 % i fermer xo'jaliklari, 88,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 83,5 % i fermer xo'jaliklariga, 1,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 14,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

**2025- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-dekabr 2025- y	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	196,1	100,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	10,5	106,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	158,8	96,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	26,8	114,8
Sut, ming tonna	1207,5	101,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	108,9	120,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 079,1	99,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	19,5	120,3
Tuxum, mln dona	728,2	110,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	226,2	147,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	383,8	99,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	118,2	100,0
Jun, tonna	1 526,0	105,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	172,0	121,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 344,0	104,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi	10,0	125,0



tashkilotlar

Baliq, tonna	16 449,7	114,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	13 743,7	113,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	310,1	110,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 395,9	123,7

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Farg'ona viloyati	196 106,0	1 207 482,0	728 227,0
Farg'ona sh	10 495,1	18 277,6	12 990,3
Qo'qon sh	3 589,3	6 019,2	4 090,3
Quvasoy sh	8 540,2	37 270,7	106 693,4
Marg'ilon sh	5 954,3	7 154,0	6 523,8
tumanlar:			
Oltiariq	13 332,9	77 302,4	50 075,5
Qo'shtepa	9 626,9	69 261,4	36 679,9
Bag'dod	15 046,0	84 041,1	40 702,1
Buvayda	12 076,0	80 960,3	30 038,6
Beshariq	8 843,4	95 186,5	115 688,3
Quva	10 525,5	78 079,4	26 302,1
Uchko'prik	10 665,5	76 573,1	54 844,3
Rishton	10 619,7	74 311,6	25 567,8
So'x	2 867,9	34 855,1	8 978,8
Toshloq	11 035,5	68 379,5	29 671,4
O'zbekiston	10 395,2	97 660,6	31 554,7
Farg'ona	27 402,4	100 294,3	31 343,0
Dang'ara	12 354,4	84 771,8	61 909,2
Furqat	7 502,8	74 017,3	32 991,1
Yozyovon	5 233,0	43 066,1	21 582,4

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Oltiariq (3 198,5 mlrd so'm), Qo'shtepa (2 541,4 mlrd so'm), Rishton (2 515,5 mlrd so'm), Quva (1 959,4 mlrd so'm) va Bag'dod (1 918,6 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qo'qon (105,6 mlrd so'm) Marg'ilon (196,1 mlrd so'm) va Farg'ona (198,3 mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Oltiariq (120,5 %), Farg'ona (120,1 %), So'x (115,3 %), Toshloq (111,2 %) va Buvayda (111,1 %) tumanlarida qayd etildi. Beshariq (101,3 %),



Farg'ona sh (102,6 %), Marg'ilon sh (102,7 %) va So'x (102,8 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan donlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	1 147 009,0	112,1
Farg'ona sh	2 502,2	110,9
Qo'qon sh	503,7	125,3
Quvasoy sh	14 785,4	110,6
Marg'ilon sh	158,4	153,2
tumanlar:		
Oltiariq	55 109,2	109,2
Qo'shtepa	95 595,8	108,1
Bag'dod	95 705,8	106,8
Buvayda	110 540,6	119,6
Beshariq	84 945,8	104,7
Quva	72 401,3	106,2
Uchko'prik	83 779,6	128,2
Rishton	97 155,8	109,3
So'x	4 851,3	118,5
Toshloq	54 536,3	106,4
O'zbekiston	63 018,3	127,3
Farg'ona	50 859,6	113,8
Dang'ara	102 783,6	113,7
Furqat	81 705,5	112,1
Yozyovon	76 070,8	109,4

Yetishtirilgan don umumiy hajmining eng yuqori ulushi Buvayda tumani (9,6 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Dang'ara (9,0 %), Rishton (8,5 %), Qo'shtepa va Bag'dod (8,3 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Qo'qon va Marg'ilon sh (0,0 %), Farg'ona sh (0,2 %) va So'x t (0,4 %) da kuzatildi. 2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Marg'ilon sh (153,2 %), O'zbekiston (127,3 %), Qo'qon sh (125,3 %), Buvayda (119,6 %) va So'x (118,5 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar kesimida yetishtirilgan kartoshka hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	480 007,0	108,6
Farg'ona sh	4 627,9	100,9
Qo'qon sh	3 886,3	99,6
Quvasoy sh	17 330,7	105,0
Marg'ilon sh	1 858,4	85,4
tumanlar:		
Oltiariq	31 126,3	94,8
Qo'shtepa	38 467,7	81,5
Bag'dod	33 792,0	115,7
Buvayda	32 447,5	118,3
Beshariq	27 507,5	94,4
Quva	35 674,8	97,8
Uchko'prik	23 993,2	125,9
Rishton	21 655,5	116,1
So'x	20 292,6	109,5
Toshloq	36 455,7	142,7
O'zbekiston	33 961,8	105,4
Farg'ona	28 928,7	105,8
Dang'ara	29 364,1	126,9
Furqat	28 763,9	120,0
Yozyovon	29 872,4	124,3

Yetishtirilgan kartoshka umumiy hajmining eng yuqori ulushi Qo'shtepa (8,0 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Toshloq (7,6 %), Quva (7,4 %), O'zbekiston (7,1 %), Bag'dod (7,0 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Marg'ilon (0,4 %), Qo'qon (0,8 %) va Farg'ona (1,0 %) shaharlarida kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Toshloq (142,7 %), Dang'ara (126,9 %), Yozyovon (124,3 %), Furqat (120,0 %), Buvayda (118,3 %) va Rishton (116,1 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	1 616 016,0	104,6
Farg'ona sh	15 170,6	102,5
Qo'qon sh	5 089,6	103,5
Quvasoy sh	39 361,9	105,4
Marg'ilon sh	8 552,9	101,4
tumanlar:		
Oltiariq	217 564,3	105,6
Qo'shtepa	173 242,9	106,5
Bog'dod	113 330,7	109,5
Buvayda	96 742,5	107,2
Beshariq	96 237,0	93,8
Quva	114 726,1	103,5
Uchko'prik	85 230,6	102,8
Rishton	204 034,8	105,9
So'x	9 991,2	93,7
Toshloq	126 088,9	107,9
O'zbekiston	93 773,3	104,8
Farg'ona	65 697,3	100,1
Dang'ara	45 620,3	103,1
Furqat	45 759,0	103,0
Yozyovon	59 802,1	104,6

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Oltiariq tumani (13,5 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Rishton (12,6 %), Qo'shtepa (10,7 %), Toshloq (7,8 %), Quva (7,1 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Qo'qon sh (0,3 %), Marg'ilon sh (0,5 %) va So'x (0,6 %) tumanida kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bag'dod (109,5 %), Toshloq (107,9 %), Buvayda (107,2 %), Qo'shtepa (106,5 %), Rishton (105,9 %), Quvasoy sh (105,4 %) hamda O'zbekiston (104,8 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar kesimida yetishtirilgan poliz ekinlari hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	259 273,0	130,2
Farg'ona sh	314,5	114,2
Qo'qon sh	471,6	0,0
Quvasoy sh	5 740,8	114,4
Marg'ilon sh	0,0	0,0
tumanlar:		
Oltiariq	34 341,1	136,4
Qo'shtepa	41 151,3	163,9
Bag'dod	22 938,2	112,5
Buvayda	22 044,5	124,8
Beshariq	26 277,4	118,0
Quva	12 807,8	115,4
Uchko'prik	9 622,5	162,5
Rishton	24 147,1	112,7
So'x	0,0	0,0
Toshloq	13 536,4	137,4
O'zbekiston	13 498,1	116,6
Farg'ona	1 526,9	131,3
Dang'ara	12 469,4	136,2
Furqat	7 059,7	134,1
Yozyovon	11 325,7	146,8

Yetishtirilgan poliz ekinlari umumiy hajmining eng yuqori ulushi Qo'shtepa tumani (15,9 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Oltiariq (13,2 %), Beshariq (10,1 %), Rishton (9,3 %), Bag'dod (8,8 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar So'x (0,0 %) tumani hamda Marg'ilon (0,0 %), Farg'ona (0,1 %) va Qo'qon (0,2 %) shaharlarida kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qo'shtepa (163,9 %), Uchko'prik (162,5 %), Yozyovon (146,8 %), Toshloq (137,4 %), Oltiariq (136,4 %), Dang'ara (136,2 %), Farg'ona (131,3 %) va Buvayda (124,8 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar kesimida yetishtirilgan meva va reravorlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	472 969,2	106,8
Farg'ona sh	6 530,4	100,2
Qo'qon sh	5 068,1	102,5
Quvasoy sh	74 479,8	107,5
Marg'ilon sh	8 975,1	107,2
tumanlar:		
Oltiariq	18 876,2	106,5
Qo'shtepa	24 900,8	105,8
Bag'dod	31 040,9	107,5
Buvayda	11 014,1	95,0
Beshariq	32 790,5	101,4
Quva	44 685,7	108,1
Uchko'prik	26 780,8	103,2
Rishton	37 650,8	101,2
So'x	9 705,5	98,1
Toshloq	19 625,5	112,8
O'zbekiston	38 896,5	104,4
Farg'ona	59 235,5	123,4
Dang'ara	9 083,1	106,8
Furqat	6 983,6	95,4
Yozyovon	6 646,1	99,4

Yetishtirilgan meva va rezavorlar umumiy hajmining eng yuqori ulushi Quvasoy (15,7 %) shahri hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Farg'ona (12,5 %), Quva (9,4 %), O'zbekiston (8,2 %), Rishton (8,0 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Qo'qon (1,1 %), Farg'ona sh va Yozyovon t (1,4 %), Furqat (1,5%) Marg'ilon (1,9%), shaharlarida kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona (123,4 %), Toshloq (112,8 %), Quva (108,1 %), Bag'dod (107,5 %), Quvasoy (107,5 %), Dang'ara (106,8 %), Oltiariq (106,5 %) va Farg'ona (105,8 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar kesimida yetishtirilgan uzum hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	229 063,0	120,9
Farg'ona sh	1 182,2	156,5
Qo'qon sh	194,8	485,8
Quvasoy sh	5 671,9	101,0
Marg'ilon sh	4 257,2	101,8
tumanlar:		
Oltiariq	101 602,4	146,6
Qo'shtepa	27 069,6	103,9
Bag'dod	6 664,4	105,5
Buvayda	8 962,8	111,4
Beshariq	538,5	208,1
Quva	7 414,5	103,6
Uchko'prik	1 944,9	148,8
Rishton	4 677,9	107,9
So'x	18,2	101,1
Toshloq	1 794,7	145,9
O'zbekiston	18 299,8	100,2
Farg'ona	24 897,9	107,5
Dang'ara	6 850,9	101,6
Furqat	1 558,2	110,9
Yozyovon	5 462,2	103,5

Yetishtirilgan uzum umumiy hajmining eng yuqori ulushi Oltiariq (44,4 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Qo'shtepa (11,8 %), Farg'ona (10,9 %), O'zbekiston (8,0 %), Buvayda (3,9 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar So'x (0,0 %), Qo'qon sh (0,1 %) va Beshariq t (0,2 %), Farg'ona (0,5 %) shaharlarida kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qo'qon sh (4,9 m), Beshariq t (2,1 m), Farg'ona sh (156,5 %), Uchko'prik (148,8 %), Oltiariq (146,6 %), Toshloq (145,9 %) va Buvayda (111,4 %) tumanlarida qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026- yilning 1- yanvar holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 109,6 ming boshga yetdi, (2025- yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 0,9 % ga ko'p), sigirlar 405,0 ming boshga, qo'y va echkilar 959,1 ming boshga (0,6 % ga ko'p), parrandalar 9 332,9 ming boshga (2,7 % ga ko'p) yetdi.

2026- yilning 1- yanvar holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1109,6	100,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	91,7	104,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1005,3	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	12,6	110,4
shundan sigirlar	405,0	100,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	39,9	103,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	359,5	99,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,6	112,0
Qo'y va echkilar	959,1	100,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	103,7	105,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	846,8	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,6	83,7
Otlar	12,0	109,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3,2	104,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	8,6	113,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,2	69,2
Parrandalar	9 332,9	102,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 802,3	108,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5 380,4	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2150,2	104,3

2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 90,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 9,8 % i fermer xo'jaliklariga, 88,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 10,8 % i fermer xo'jaliklariga, 88,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 19,3 % i fermer xo'jaliklariga, 57,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 23,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2026- yilning 1- yanvar holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Farg'ona viloyati	1 109,6	959,1	9 332,9
Farg'ona shaxar	14,9	16,1	475,9
Qo'qon shaxar	7,0	10,6	56,7
Quvasoy sh	35,3	25,9	1 037,9
Marg'ilon sh	11,6	16,5	238,8
tumanlar:			
Oltiariq	79,1	52,8	283,3
Qo'shtepa	71,0	60,8	581,0
Bag'dod	78,2	72,2	824,5
Buvayda	72,2	64,3	415,8
Beshariq	88,4	71,2	1 119,2
Quva	77,7	87,1	453,9
Uchko'prik	77,3	52,8	581,1
Rishton	66,2	58,9	377,6
So'x	23,9	25,1	82,5
Toshloq	59,9	55,5	315,0
O'zbekiston	72,3	68,5	434,0
Farg'ona	84,2	57,1	809,9
Dang'ara	89,2	62,5	530,2
Furqat	61,5	46,9	391,6
Yozyovon	39,7	52,9	324,0

**VI. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha
uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://farstat.uz/uz/nashrlar/press-relizlar.html>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
S. Sultonov
73 241-98-30

Manzil:

